

## KICHIK MAKTAB YOSH DAVRIDA KOGNITIV JARAYONLAR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

**Fozilova Sabohat Nodirbek qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU,

Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha) yo‘nalishi, 2-bosqich magistranti

[saboxatfozilova171@gmail.com](mailto:saboxatfozilova171@gmail.com)

**Annotation:** This article focuses on the socio-psychological factors of the development of cognitive processes in primary school age.

**Keywords:** Social factors, psychological factors, mnemonic ability, attention perception, memory, cognitive process.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola kichik maktab yoshida kognitiv jarayonlar rivojlanishining ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy omillar, psixologik omillar, mnemonik qobiliyat, diqqatni idrok etish, xotira, kognitiv jarayon

Hozirgi kunda mamlakatimizning rivojlanishi va uning ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, sog‘lom, istedodli yoshlarni tarbiyalashni talab qilmoqda. To‘g‘ri va mukammal ta’lim tizimi shakllantirmay turib talab qiliniyotgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Jamiyatimizning yakdil maqsadi farzandlarimizni ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishdir. Yurtimizda kichik maktab yosh davri, bu yosh davridagi kognitiv jarayonlar rivojlanishi va ijtimoiy tasirlar ko‘plab xorij psixologlari, o‘zbek psixologlari tamonidan o‘rganilgan. Kichik maktab yosh davri o‘rganilish jarayonlari turli mulohaza qarashlarga boydir. Bu davr inson hayoti aqliy faoliyatini rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Kognitiv jarayonlar ( diqqat, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va nutq ,fikrlash) maktabgacha yosh davrida ham shakllangan bo‘ladi lekin kichik maktab yosh davrida

ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida mukammal darajaga yetadi. Ixtiyoriy diqqatni shakllanishi, diqqatni taqsimlanishi, xotira jarayonlari ixtiyoriy esda saqlash, mnemonik qobilyatni paydo bo'lishi, keljakni tasavvur qilish, yozma nutqni rivojlanishi tub burilish yasaydi. Boshlang'ich maktab yoshida kognitiv sohaning o'zgarishi keyingi to'liq rivojlanish uchun juda muhimdir. Maxsus tадqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirda boshlang'ich ta'lim tizimida bu jarayon ko'pincha o'z -o'zidan davom etadi. Boshlang'ich maktab yoshidagi ko'plab bolalarda e'tibor, xotira va aqliy harakatlarni tartibga solish qobiliyati etarli darajada shakllanmagan. Ularning haqiqiy rivojlanishi standart sharoitda stereotipli harakat usullarini o'zlashtirish bilan almashtiriladi. Aslida, kognitiv jarayonlar bir -biridan ajralib turmaydi, balki murakkab tizimni ifodalaydi. Shuning uchun, birinchi navbatda, ma'lum bir aqliy jarayonni takomillashtirishga qaratilgan rivojlanish ishlari nafaqat uning mahsulorligiga, balki umuman bilim sohalarining ishlash darajasiga ta'sir qiladi.

Kichik maktab yoshida kognitiv jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy-psixologik omillarni o'rgansak. Bolaga ta'sir qiluvchi eng katta ijtimoiy omil: bola tug'ilib o'sgan oilasi, ota-onasi va yaqin qarindoshlari. Chunki bola eng birinchi bilim va hayotiy ko'nikmalarni ota-onasidan oladi. Maktab. Jamiatning qo'ygan birinchi talabini bajarishi. Yangi ijtimoiy muhitga kirishi va o'quvchi unvoniga ega bo'lishi uning vazifalarini bajarishi. Rossiya rivojlanish psixologiyasida (G.S. Abramova, Sh.A. Amonashvili, B.G. Ananiev, L.I. Bozhovich va boshqalar) kichik maktab yoshida, maktab - bu eng muhim ijtimoiy makon (oila va qo'shnilar bundan mustasno), bu erda bolaning hayotiy voqealari sodir bo'ladi, unda u o'zining eng muhim rivojlanish muammolarini hal qiladi. O'qituvchi. O'qituvchi fikri, kichik maktab o'quvchisi uchun muhim va qat'iydir. Kichik maktab o'quvchilari uning mavqeini so'zsiz tan oladilar. Ular barcha masalalar yuzasidan o'qituvchiga murojaat qilishadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik bolada kattalar bilan muloqot jarayoniga yo'l ochadi. Maktabga kelgan va ma'lum miqdordagi bilimga ega bo'lган bola, faqat o'quv jarayonida o'z bilim faoliyatini faol rivojlantiradi. Ammo bundan ham samaraliroq va maqsadli bo'lishi uchun, bu asosan o'qituvchiga bog'liq bo'lib, u o'quvchini qanday qiziqtirishi va uni o'quv mashg'ulotlariga qo'yishi muhim.

Psixologik omillar jadal biologik rivojlanayotgan bolaga kuchli ta'sir qiladi.Yangi ijtimoiy muhitga moslashish, doimiy bir xil kun tartibi, darslarda o'tirish, vazifalarni bajarish, berilayotgan bilimlarni o'zlashtirish (o'qish ,yozish,xisoblash)ular uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

Bu yosh davri bilan ishslash kundan-kunga murakkablashib bormoqda , unga qo'yilgan talablarning ortishi, zamonning rivojlanishi ham ta'siri kuchlidir. Bundan 15-20 yil oldingi qo'yilgan talablar o'rinsizdir. Bitta narsa ma'lumki bu yosh davri – faqat bilim olishga o'rganishga bo'lgan extiyoji o'zgarmas qolgan barcha omillar o'zgaradi.Biz buni inobatga olib rivojlanish bilan birga va ildamroq , o'z qarashlarimizni,ta'lim –tarbiya jarayonimizni moslashtirmog'imiz darkor,aks xolda bolalarda bilish ,aqliy faoliyatidagi uzviylik yo'qoladi.2021-2022 o'quv yilidan Xalq ta'limi soxamizda tub burilish “Milliy dastur” asosida darsliklar va yangi ta'lim tizimiga o'tilishi “Yangi O'zbekiston” bolalari bilim darajasiga mos deb o'layman.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Rivojlanish va tarbiyaviy psixologiya: Darslik. talabalar uchun qo'llanma. in-tov / M. V. Matyuxina, T. S. Mixalchnk, N. F. Prokina va boshqalar; Ed. M.V. Gamzo va boshqalar - M.: Ta'lim, 1984.
2. Bilimlarni o'zlashtirishning yoshga bog'liq imkoniyatlari / Ed. D.B. Elkonin va V.V.Davydov. - M., 1966 yil.
3. Ermolaev-Tomin, O.Yu. O'quvchi diqqatiga / O.Yu. Ermolaeva, T.M. Maryutina, T.A. Meshkov. - M.: Bilim, 1987..
4. Kulagina, I.Yu. Rivojlanish psixologiyasi: Bolaning tug'ilishdan 17 yoshgacha rivojlanishi: Darslik. qo'llanma / I.Yu. Kulagina; Univ Ros. akad ta'lim. - 4 -nashr. - M.: URAO, 1998.